“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIVAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIVAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI.....	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МИСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I - MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
ANOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўгли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўгли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кошанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: HORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ.....	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSİYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriiddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIV TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI.....	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ.....	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH.....	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI.....	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI.....	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEKANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Boxora Boymurodovna Sadinova, Farhod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Xolmuxeamedova Feruza	
FRANSUZ TILIDA SAYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI.....	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	2260
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI.....	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS.....	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIYAVIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI.....	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Sarimsakova Malohat Hikmatullaevna	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	



AGROSANOAT INNOVATSION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	
TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	



TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Melikov Otabek Maxmadaminovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Moliya va bank ishi” kafedrası mudiri, Phd. dotsent

Email: o.melikov@dpi.uz

ORCID:0009-0006-1518-4107

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlari faoliyatini kreditlash amaliyotining hozirgi holati tahlil qilingan hamda uni rivojlantirishning iqtisodiy va institutsional yo'llari ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqotda bank kreditlarining kichik biznes rivojidagi o'rni, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi, moliyaviy cheklovlar va risk omillari o'rganilgan. Shuningdek, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va kredit risklarini boshqarishni yaxshilash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kichik biznes, kreditlash, moliyaviy resurslar, investitsiya faoliyati, kredit siyosati, bank risklari.

Abstract. This article analyzes the current state of commercial bank lending practices for small businesses and provides a scientific basis for economic and institutional pathways for its development. The study examines the role of bank loans in small business growth, the effectiveness of credit resource utilization, financial constraints, and risk factors. Additionally, practical recommendations are put forward for improving lending mechanisms, expanding digital banking services, and enhancing credit risk management.

Key words: commercial bank, small business, lending, financial resources, investment activity, credit policy, bank risks.

Аннотация. В данной статье проанализировано текущее состояние практики кредитования субъектов малого бизнеса коммерческими банками, а также научно обоснованы экономические и институциональные пути ее развития. В исследовании рассмотрены роль банковских кредитов в развитии малого бизнеса, эффективность использования кредитных ресурсов, финансовые ограничения и факторы риска. Кроме того, разработаны практические предложения по совершенствованию механизмов кредитования, расширению цифровых банковских услуг и улучшению управления кредитными рисками.

Ключевые слова: коммерческий банк, малый бизнес, кредитование, финансовые ресурсы, инвестиционная деятельность, кредитная политика, банковские риски.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda kichik biznes subyektlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kichik biznesning moslashuvchanligi, ichki bozor talablariga tez javob qaytarish imkoniyati hamda innovatsion faollikka moyilligi uni iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylantirmoqda.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarga, xususan, bank kreditlariga bo'lgan imkoniyatlar bilan belgilanadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari tomonidan kichik biznesni kreditlash jarayonida bir qator muammolar, jumladan, garov ta'minotining yetarli emasligi, kredit risklarining yuqoriligi, foiz stavkalarining nisbatan qimmatligi kabi omillar mavjud.

So'nggi yillarda respublikamizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-avgustdagi “Kichik tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlari tashkil etish va kam ta'minlangan oilalarga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutadigan loyihalarni moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 655-son¹ qarori [1] qabul qilingan.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-3317011>



Bu bank tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ko'rsatilayotgan bank xizmatlari, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda kreditlash hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

Shu bois, tijorat banklarining kichik biznes subyektlari faoliyatini kreditlash amaliyotini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirish bugungi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznesni moliyalashtirish masalalari turli jihatlardan o'rganilgan. Ayrim tadqiqotlarda bank kreditlarining kichik biznes Investitsiya faolligiga ta'siri asosiy e'tibor markazida bo'lsa, boshqa ishlarda kredit risklarini boshqarish va moliyaviy vositachilik samaradorligiga urg'u berilgan. Masalan:

A.M. Ismailov va A.I. Jumanovlarning fikricha, tijorat banklariga kichik biznes subyektlari tomonidan realizatsiya qilingan tovarlar hujjatlarini ham regress huquqi bilan, ham regress huquqsiz sotib olish imkonini berish lozim [2].

Jahon banki tadqiqotlarida kichik biznesni kreditlash jarayonida banklar duch keladigan asosiy muammo sifatida axborot asimmetriyasi va kredit risklarini baholash murakkabligi qayd etilgan [3].

Nazariy jihatdan, axborot asimmetriyasi sharoitida banklar qarz oluvchilarning real moliyaviy holatini to'liq baholay olmasligi natijasida advers seleksiya va moral risk holatlari yuzaga keladi. Bunday sharoitda banklar kreditlash hajmlarini cheklash yoki qat'iy shartlar joriy etish orqali risklarni kamaytirishga intiladi [4].

Xalqaro tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, kichik biznes subyektlarining kreditliligini baholashda banklar uchun asosiy qiyinchilik moliyaviy hisobotlar shaffofligining pastligi, kredit tarixi qisqaligi va garov ta'minotining yetarli emasligi bilan bog'liq [5]. Shu sababli, an'anaviy kredit baholash usullari kichik biznes xususiyatlarini to'liq aks ettira olmaydi.

Kichik biznesni kreditlash amaliyotini rivojlantirishda muhim nazariy yondashuvlardan biri "Relationship lending" konsepsiyasidir. Mazkur yondashuvga ko'ra, tijorat banklari kredit qarorlarini qabul qilishda qarz oluvchi bilan uzoq muddatli hamkorlik jarayonida to'plangan norasmiy (soft) axborotlardan foydalanadi [6].

Berger va Udell tadqiqotlariga ko'ra, "Relationship lending" mexanizmi orqali banklar moliyaviy jihatdan "shaffof emas" bo'lgan kichik biznes subyektlarini ham kreditlash imkoniyatiga ega bo'ladi [7]. Bu esa kredit skoringi va garovga asoslangan yondashuvlar samarasiz bo'lgan holatlarda kreditlash amaliyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy bank amaliyotida "Transaction-based lending" usullari, jumladan, avtomatlashtirilgan kredit skoring tizimlari, moliyaviy koeffitsiyentlar va standartlashtirilgan baholash modellari keng qo'llanilmoqda [8]. Biroq, ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, ushbu usullar kichik biznesning barcha xususiyatlarini qamrab olishda cheklangan bo'lib, "Relationship lending" bilan uyg'unlashtirilgan holdagina yuqori samara beradi.

So'nggi yillarda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tadqiqotlarida kichik biznesni kreditlash amaliyotini takomillashtirishda davlat kafolat jamg'armalari, kredit risklarini taqsimlash mexanizmlari va raqamli moliyaviy infratuzilmaning roli alohida ta'kidlanmoqda [9]. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida kredit baholash jarayonlarini avtomatlashtirish banklar uchun operatsion xarajatlarni kamaytirish va kredit qarorlarini qabul qilish tezligini oshirish imkonini beradi [10].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini rivojlantirish axborot asimmetriyasini kamaytirish, kredit risklarini samarali boshqarish va "Relationship lending" hamda "Transaction-based lending" usullarini uyg'unlashtirish asosida amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv bank kredit siyosati samaradorligini oshirish bilan birga, kichik biznesni moliyalashtirish amaliyotining institusional jihatdan takomillashuvini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy statistik ma'lumotlar, statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, statistik jadval kabi usullardan, shuningdek, statistik va solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotida kichik tadbirkorlik subyektlarining ahamiyati yuqori darajada saqlanib kelayotgani jadval ma'lumotlari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni, YAIM hajmining barqaror o'sishi bilan bir qatorda, kichik tadbirkorlikning iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashdagi o'rnida muayyan tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.



Xususan, 2010-yilda YAIM hajmi 88,1 trln. soʻmdan 2024-yilga kelib 1 535,4 trln. soʻmga yetgan boʻlib, qariyb 17 barobar oʻsish kuzatilgan. Bu mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmlari kengaygani va iqtisodiy faollik oshganini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi 2010–2017-yillarda oʻsish tendensiyasiga ega boʻlib, 2017-yilda eng yuqori koʻrsatkich — 67,2 foizni tashkil etgan. Bu davrda kichik tadbirkorlik iqtisodiy oʻsishning asosiy drayverlaridan biri sifatida shakllanganini koʻrish mumkin. Biroq, 2018-yildan boshlab ushbu ulush pasayish tendensiyasiga oʻtib, 2023–2024-yillarda 54,3 foiz atrofida shakllangan (1-jadval).

1-jadval. YAIM va kichik tadbirkorlik subektlari boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar dinamikasi²

Yil	YAIM hajmi, mlrd. soʻm	Kichik tadbirkorlik subektlarining jami YaiMdagi ulushi, %	Kichik tadbirkorlik subektlarining jami bandlikdagi ulushi, %	Kichik tadbirkorlik subektlarida band boʻlganlar soni, ming kishi
2010	88102,4	60,8	74,3	8643,9
2011	115627,8	61,9	75,1	8950,7
2012	142333	60,8	75,6	9239,7
2013	173201,5	60,9	76,7	9604
2014	210998,3	61,9	77,6	9950,8
2015	250544,6	64,6	77,9	10170,4
2016	290213,4	66,8	78,2	10397,5
2017	369612,8	67,2	78	10541,5
2018	494814,8	64,3	76,3	10128,8
2019	620083,2	58,5	76,2	10318,9
2020	705076,5	57,5	74,5	9865,7
2021	861170,8	56,9	74,5	10080,6
2022	1041877,9	54,6	73,9	10131,1
2023	1261806	54,3	74	10373,3
2024	1535431,7	54,3	74,5	10628,7

Mazkur holatni iqtisodiyotda yirik sanoat va infratuzilma loyihalarining ulushi ortishi, davlat va korporativ sektorning faollashuvi hamda iqtisodiy oʻsish manbalarining diversifikatsiya qilinishi bilan izohlash mumkin. Yaʼni, kichik tadbirkorlikning mutlaq hajmdagi oʻsishi saqlanib qolgan boʻlsa-da, uning nisbiy ulushi pasaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida band boʻlgan aholining jami bandlikdagi ulushi tahlili shuni koʻrsatadiki, ushbu koʻrsatkich butun davr mobaynida yuqori darajada saqlangan. 2010-yilda 74,3 foizni tashkil etgan mazkur ulush 2016–2017-yillarda 78 foizdan oshgan.

Bu holat kichik tadbirkorlik mehnat bozorida asosiy ish beruvchi sifatida namoyon boʻlayotganini anglatadi. Ayniqsa, mehnat sigʻimi yuqori boʻlgan sohalarida kichik biznes subyektlarining ustunligi aholi bandligini taʼminlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

2020-yildan keyin bandlik ulushining nisbatan pasayishi (73,9–74,5 foiz) pandemiya taʼsiri, ayrim xizmat koʻrsatish sohalarida faollikning qisqarishi va ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi bilan bogʻliq omillar taʼsirida yuzaga kelgan. Shu bilan birga, koʻrsatkichning 74 foizdan yuqori darajada saqlanib qolishi kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotida ikki asosiy funksiyani bajarib kelmoqda:

Birinchi, iqtisodiy oʻsishda faol ishtirok etish;

Ikkinchi, aholi bandligini taʼminlashning asosiy manbai boʻlish.

YAIMdagi ulushning pasayishi kichik tadbirkorlikning zaiflashganini emas, balki iqtisodiy tuzilmaning oʻzgarib, yirik sanoat va xizmatlar sohalarining faollashganini anglatadi. Shu bilan birga, bandlik koʻrsatkichlarining barqaror saqlanib qolishi kichik tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanligini koʻrsatadi.

Mazkur holat tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kichik tadbirkorlikni alohida strategik soha sifatida koʻrib chiqish, uni moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi.

Maʼlumotlarga koʻra, 2024-yil 1-dekabr holatiga tijorat banklarining jami kredit qoʻyilmalari 525 887 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2025-yil 1-dekabr holatiga kelib ushbu koʻrsatkich 595 309 mlrd. soʻmga yetgan. Bu

² Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari.



esa jami kredit hajmining bir yil davomida 13 foizga oshganini ko'rsatadi. Ushbu o'sish bank tizimida kreditlash faoliyatining kengaygani va iqtisodiyotni moliyalashtirish hajmlari ortib borayotganidan dalolat beradi. Xususan (2-jadval):

2-jadval. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi³

Ko'rsatkichlar nomi	01.12.2024 y.		01.12.2025 y.		O'zgarishi, %
	mlrd. so'm	ulushi, %	mlrd. so'm	ulushi, %	
Jami kreditlar	525 887	100%	595 309	100%	13%
Sanoat	150 146	29%	143 511	24%	-4%
Qishloq xo'jaligi	50 887	10%	61 628	10%	21%
Qurilish sohasi	13 378	3%	18 063	3%	35%
Savdo va umumiy xizmat	37 138	7%	41 311	7%	11%
Transport va kommunikatsiya	33 599	6%	32 365	5%	-4%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3 747	0,7%	4 741	0,8%	27%
Uy-joy kommunal xizmati	2 261	0,4%	1 842	0,3%	-19%
Jismoniy shaxslar	175 350	33%	217 162	36%	24%
Boshqa sohalar	59 381	11%	74 685	13%	26%

Sanoat sohasi bank kredit qo'yilmalarida eng katta ulushga ega tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda. Biroq, 2024-yilda 150 146 mlrd. so'mni tashkil etgan kreditlar hajmi 2025-yilda 143 511 mlrd. so'mga kamaygan. Natijada sanoatning jami kreditlar tarkibidagi ulushi 29 foizdan 24 foizga tushgan. Bu holat sanoat loyihalarini moliyalashtirishda ehtiyotkorlik kuchaygani yoki ayrim yirik loyihalar bo'yicha kreditlash hajmlari qisqarganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi sohasiga ajratilgan kreditlar hajmi 50 887 mlrd. so'mdan 61 628 mlrd. so'mga oshgan bo'lib, o'sish sur'ati 21 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, tarmoqning jami kreditlardagi ulushi 10 foiz darajasida saqlanib qolgan. Bu holat qishloq xo'jaligini kreditlash hajmlari mutlaq ko'rsatkichda oshgan bo'lsa-da, umumiy kredit portfeli o'sishi bilan mutanosib ravishda rivojlanganini anglatadi.

Qurilish sohasida kredit qo'yilmalarining eng yuqori o'sish sur'ati kuzatilgan. 2024-yilda 13 378 mlrd. so'mni tashkil etgan kreditlar 2025-yilda 18 063 mlrd. so'mga yetgan bo'lib, o'sish 35 foizni tashkil etgan. Biroq, sohaning jami kreditlardagi ulushi 3 foiz darajasida saqlanib qolgan. Bu holat qurilish sohasida loyihalar soni va hajmlari oshganini, biroq ularning umumiy kredit portfelidagi salmog'i hali ham cheklanganligini ko'rsatadi.

Savdo va umumiy xizmatlar sohasiga ajratilgan kreditlar hajmi 37 138 mlrd. so'mdan 41 311 mlrd. so'mga oshgan bo'lib, o'sish 11 foizni tashkil etgan. Ushbu sohaning kredit portfelidagi ulushi 7 foiz darajasida barqaror saqlanib qolgan. Bu savdo va xizmatlar sohasiga kreditlashning barqaror, ammo yuqori sur'atda emas, balki muvozanatli rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari kredit qo'yilmalarida tarkibiy qayta taqsimlanish jarayoni kuzatilmoqda. Sanoat va transport sohalorida nisbiy qisqarish, jismoniy shaxslar, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalorida esa o'sish tendensiyasi mavjud. Bu holat banklar kredit siyosatida risklarni diversifikatsiya qilish, qisqa va o'rta muddatli yuqori likvidli sohalarga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini ko'rsatadi.

Mazkur tahlil tijorat banklarining kreditlash amaliyotini rivojlantirishda tarmoqlar kesimida ustuvor yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish, real sektor va investitsiyaviy sohalarni uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi.

Tahlillarga ko'ra, 2020–2025-yillar davomida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kreditlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.



bo'lgan. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar hajmi 2020-yilda 48 389,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 102 368,8 mlrd. so'mga yetgan. Bu esa besh yil ichida kreditlash hajmi qariyb 2,1 barobar oshganini ko'rsatadi. Ushbu dinamika davlat va bank tizimi tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganini ifodalaydi (3-jadval).

3-jadval. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar⁴, mlrd. so'm

Yil	Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar, jami	shu jumladan:				
		Ajratilgan mikrokreditlar	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida	shundan: Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga	Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga
2020	48 389,7	10 194,3	6 078,5	3 602,1	5 959,8	4 895,9
2021	59 552,1	15 092,4	8 566,3	6 830,0	18 176,6	7 756,8
2022	69 770,3	15 404,7	9 893,3	9 094,4	11 513,3	9 402,5
2023	73 009,4	17 270,5	9 864,3	9 495,2	10 134,1	13 313,6
2024	92 424,8	23 755,4	6 841,4	6 346,5	33 582,9	16 868,6
2025 (yanvar-sentyabr)	102 368,8	26 118,8	3 630,7	8 480,9	36 985,7	12 945,6

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar asosiy yo'nalishlar bo'yicha quyidagicha tendensiyani namoyon etgan:

- mikrokreditlar hajmi tahlil davrida mutlaq o'sishni namoyon etgan. 2020-yilda 10 194,3 mlrd. so'm bo'lgan mikrokreditlar 2025-yil (yanvar-sentabr oylari)ga kelib 26 118,8 mlrd. so'mga yetgan;
- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar 2020-2023-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, 2024-2025-yillarda sezilarli qisqarish kuzatilgan. Xususan, 2022-2023-yillarda ushbu yo'nalishda ajratilgan kreditlar 9,8-9,9 trln. so'm atrofida bo'lgan, 2025-yil (yanvar-sentabr oylari)ga kelib esa 3 630,7 mlrd. so'mga tushgan;
- aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi umumiy kreditlash dinamikasiga nisbatan o'zgaruvchan xarakterga ega. 2020-yilda 3 602,1 mlrd. so'm bo'lgan mazkur ko'rsatkich 2023-yilda 9 495,2 mlrd. so'mga yetgan, 2024-yilda esa pasaygan. 2025-yil (yanvar-sentabr oylari)da qaytadan o'sib, 8 480,9 mlrd. so'mni tashkil etgan;
- xizmat ko'rsatish va servis sohasiga ajratilgan kreditlar tahlil davrida eng yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. 2020-yilda 5 959,8 mlrd. so'mni tashkil etgan mazkur kreditlar hajmi 2025-yil (yanvar-sentabr oylari)ga kelib 36 985,7 mlrd. so'mga yetgan.

Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kreditlar hajmi 2020-yilda 4 895,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 16 868,6 mlrd. so'mgacha oshgan. 2025-yil (yanvar-sentabr oylari)da ushbu ko'rsatkich ma'lum darajada kamayib, 12 945,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, 2020-2025-yillarda kichik va o'rta tadbirkorlik hamda aholining tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda kredit resurslarining hajmi va yo'nalishlari sezilarli darajada diversifikatsiya qilingan. Ayniqsa, mikrokreditlar, xizmat ko'rsatish sohasi va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kreditlar bank kredit siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan.

Bu holat tijorat banklarining kreditlash amaliyoti tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda faqat miqdoriy emas, balki tarkibiy jihatdan ham takomillashib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim dasturlar bo'yicha kreditlash hajmlarining qisqarishi kredit siyosatida ustuvorliklarni qayta ko'rib chiqish zarurligini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, tijorat banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyoti bank tizimi faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur amaliyot bank kredit portfelining tuzilishi, risk darajasi va daromadlilikiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Amalda kreditlash jarayonida banklar tomonidan qo'llanilayotgan standart kredit mexanizmlari kichik biznesning xususiyatlarini to'liq inobatga olmasligi natijasida kredit ajratish samaradorligining pasayishi kuzatilmogda.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kreditlash amaliyotida asosiy muammolar kredit risklarini baholash usullarining cheklanganligi, garovga yo'naltirilgan yondashuvning ustunligi hamda kredit berish jarayonlarining ortiqcha reglamentlashtirilganligi bilan bog'liq. Bu esa banklar uchun kredit portfeli sifatini yaxshilash imkoniyatlarini cheklab, kreditlash hajmlarini oshirishda ehtiyotkorlikni kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining kreditlash amaliyotini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, kreditlash amaliyotida garovga asoslangan yondashuvdan bosqichma-bosqich moliyaviy holat va pul oqimlarini baholashga yo'naltirilgan kredit ekspertizasiga o'tish lozim. Bu banklarga kredit risklarini aniqroq baholash va kredit qarorlarining sifati oshishiga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, tijorat banklari kredit portfelini shakllantirishda kichik biznesga mo'ljallangan kredit segmentini alohida yo'nalish sifatida boshqarish mexanizmlarini joriy etishi zarur. Bu kredit shartlarini standartlashtirish va portfel risklarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi;

Uchinchidan, kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish orqali kredit qarorlarini qabul qilish muddatlarini qisqartirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan scoring modellari va elektron monitoring tizimlarini joriy etish bank kreditlash amaliyotining samaradorligini oshiradi;

To'rtinchidan, tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali kichik biznesga berilgan kreditlar qaytaruvchanligini oshirish zarur. O'z navbatida, bu bank aktivlarining sifatini yaxshilash va kreditlash hajmlarini barqaror oshirishga imkon yaratadi.

Umuman olganda, tijorat banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini rivojlantirish bank kredit siyosati, risk-menejment va raqamli transformatsiya jarayonlarining uyg'unlashuvi asosida amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv banklar uchun kredit portfelining barqarorligi va daromadlilikini ta'minlash bilan birga, kreditlash amaliyotining institusional jihatdan takomillashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-avgustdagi "Kichik tadbirkorlik subektlariga mikromoliyaviy yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlari tashkil etish va kam ta'minlangan oilalarga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutadigan loyihalarni moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 655-son qarori.
2. Ismailov A.M., Jumanov A.I. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlari faoliyatini kreditlash amaliyotini rivojlantirish. "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish istiqbollari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. -T.: TDIU, 2023. – 594-597 b.
3. World Bank. (2019). Improving Access to Finance for SMEs. Washington, DC: World Bank. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/316871533711048308/pdf/129283-WP-PUBLIC-improving-access-to-finance-for-SMEs.pdf>
4. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. *American Economic Review*, 71(3), p. 393-410.
5. World Bank. (2024). Boosting SME Finance for Growth. Washington, DC: World Bank. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099092724122562655>
6. Petersen, M. A., & Rajan, R. G. (1994). The benefits of lending relationships. *Journal of Finance*, 49(1), p. 3-37.
7. Berger, A. N., & Udell, G. F. (2001). Small business credit availability and relationship lending. *Federal Reserve Bank Working Paper*. p. 157
8. Berger, A. N., & Udell, G. F. (2001). Small business credit scoring and credit availability. *Journal of Banking & Finance*, 31(1), p. 11-33.
9. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Martinez Peria, M. S. (2011). Bank financing for SMEs. *Journal of Financial Services Research*, 39(1-2), p. 35-54.
10. OECD. (2022). Financing SMEs and Entrepreneurs 2022. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2022_e9073a0f-en.html
11. <https://stat.uz>
12. <https://cbu.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>